

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARNI MATEMATIKA DARSLARIDA OG'ZAKI HISOBLASHNI O'RGATISH YO'LLARI

Bayzakova Maxfuza Samandarovna, Bazarbayeva Maftuna Abdujabbor qizi
Sardoba tumani 12-maktab boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari,
maktabim12*sar@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7567399>

Annotatsiya: ta'lim islohatlarinining zamonaviy bosqichi jamiyatda yuz berayotgan yangilanishlarning tezkorligi, ta'lim muassasalariga qo'yilayotga yangi, yanada yuqori talablarga tezroq moslashish bilan bog'liq dolzarb vazifalarni ilgari surmoqda.

Kalit so'zlar: component, sistema, narvoncha, sonni top, zanjir, bog'bon bola,og'zaki, avtomatlashtirish.

Ma'lumki, yoshlarga jahon talimi andozalari asosida bilim berish, ularni zamonaviy dunyo standartlariga mos holda fikrlaydigan raqobatbardosh kadrlar sifatida yetishtirish masalalari xalq ta'lim soxasining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi.

O'zbekistonning ravnaqi, kelajagi aqlan teran, jis-monan barkamol yoshlarga bog'liq. Bunday yoshlarni tarbiyalash masalasi o'rta maktab, qolaversa boshlang'ich sinf o'qituvchisi oldida qator vazifalarni qo'yadi. O'quvchilarda matematik qobiliyatni o'stirishdan ko'zlanadigan maqsad, ularning faoliyatini hayot bilan bevosita bog'lashdir.

Hozirgi paytda maktablarda boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarni har tomonlama etuk insonlar qilib tarbiyalash hisoblanadi. Bunda ularda matematika bo'yicha bilimlar berish bilan birga ularga o'rganilayotgan bilimlarni asosli va puxta bo'lishini ta'minlash, ularni qo'llay olish ko'nikma va malakalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa matematika darslarida fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish hamda ularni kelgusida olingan bilimlarni ongli hayotiy faoliyatda muvaffaqiyatli qo'llashlari uchun zarur ko'nikma va malakalarni shakllantirish boshlanqich matematik ta'limning asosiy vazifalariga aylanishi lozim. SHu nuqtai nazardan o'quv jearayonida matematik masalalar, jumladan hayotiy mazmunli,ularning to'plagan tajribasiga asoslangan masalalarni echish usullariga va ularni qo'llashga o'rgatish o'ziga xos xususiyatlarga ega, ularni ta'lim mazmuni va o'rganilayotgan tushunchalar mohiyatini ochib berishda foydalanish, o'zaro aloqadorlikda va o'quvchilar amaliy faoliyati tajribasi bilan qo'shgan holda o'qitish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bu usullarni ishlab chiqish va amalda qo'llash o'qitish sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich ta'limda matematika o'qitishning asosiy maqsadlaridan biri ham o'quvchilar intellektual

tafakkurini shakllantirish asosida o'quvchilar qobiliyat va qiziqishlarini rivojlantirish hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchisini mantiqiy fikrlashga, har bir o'rganiladigan tushuncha, qoidalarni to'g'ri idrok qila olishga, tez va to'g'ri og'zaki hisoblashga o'rgatish ta'lim – tarbiyaning murakkab jarayoni bo'lib, o'qituvchidan yuksak bilim, katta tajriba va ijodiy ma-laka talab etadi. Hisobni bilish har doim va har bir sohada: kosmik fazoga uchishni amalga oshirishdan tortib, qurulish yoki muassasani boshqarishgacha ham zarur. Har bir kishining turmush va amaliy faoliyatida loaqal oddiy hisoblash malakalariga ega bo'lishi va hisoblashning qulay usullarini bilishi g'oyat muhimdir.

O'quvchilar uchun ham hisoblashni bilish shart. Aytaylik, u do'kondan xarid qilgan narsalarining bahosini darrov hisoblab chiqishi kerak bo'lsin. Tabiiyki, u o'zi bilan qog'oz qalam olib yurmaydi. Shunda unga og'zaki hisoblash malakasi yordam beradi.

O'quvchilarga matematika fanini o'qitishdagi eng muhim vazifa "avtomatlashtirilgan" xarakterdagi mala-kalar paydo qilishdir. "Avtomatlashtirish" so'zi bilan amallarni ongli ravishda bajarishdan mexanik ravishda bajarishga o'tish belgilanadi. Ko'pgina o'quv malakalarini: o'qish, yozish, hisoblash va boshqa malakalarni paydo qilishda bunday o'tish o'rinli bo'ladi; boshda ular ongli ravishda so'ngra esa ongning ishtirokisiz, mexanik ravishda bajariladi. Ammo kerak bo'lgan holda, masa-lan, amallarni bajarish yo'lida to'sqinlikka duch kel-ganda, yana ong yordamga keladi va amal ongning faol ishtirokida bajariladi.

Maktablarimizda mustahkam o'rnashib qolgan odatlardan biri boshlang'ich sinflarda deyarli har bir matematika darsida o'tkaziladigan kundalik og'zaki hisob mashqlaridir. Og'zaki hisobga bunday ixlos qo'yishning sababi nima bilan izohlanadi, maktablarimiz uchun uning ahamiyati nimalardan iborat?

Har bir kishi uncha murakkab bo'lmagan hisoblashlarni "zehn" da tez va to'g'ri bajarishni bilishining amaliy ahamiyatidan tashqari, og'zaki hisoblashni uslubshunoslar doim bolalar matematika darslarida olgan nazariy bilimlarini chuqurlashtirishning yaxshi vositalaridan biri deb qaraydilar.

Og'zaki hisoblash mashqlariga tarbiyaviy jihatdan ham yuksak baho berib kelingan: og'zaki hisoblash bolalarda fahm-farosat, zehn, diqqatning rivojlanishiga, bolalar xotirasini faolligini, chaqqonligini, sezgirligini va fikrlashda mustaqilligini rivojlantiradi deb hisoblangan.

Og'zaki hisoblash usullari ham yozma hisoblash usullari ham nomerlashni, arifmetik amallar xossalarini, amallarning natijalarini va komponentlari orasidagi bog'lanishlarni bilishga, shuningdek komponentlardan birining o'zgarishiga

qarab, natijalarning ham o'zgarishini bilishga asoslangan. Biroq og'zaki va yozma hisoblash usullari orasida muhim farqlar ham bor:

1.Og'zaki hisoblashda oraliq natijalar dilda saqlanadi, yozma hisoblashda esa darhol yoziladi.

2.Sonlar jufti ustida bitta amal uchun og'zaki hisoblash usullari misolning xususiyatlariga va qaysi xossadan foydalanganligiga bog'liq ravishda turlicha bo'lishi mumkin, yozma hisoblashda esa har bir arifmetik amal uchun qabul qilingan, ma'lum darajada aniq belgilangan qoidalar bo'yicha bajariladi.

3.Og'zaki hisoblashda misolning yechilish yozuvi satr qilinib bajariladi, yozma hisoblashda esa ustun qilib yoziladi.

Og'zaki hisoblash malakasi takomillashib borishi uchun og'zaki va yozma hisoblash usullarini qo'llashda to'g'ri munosabat o'rnatish, og'zaki hisoblash qiyin bo'lgandagina yozma hisoblash zarur. O'quvchilarning har bir darsni puxta o'zlashtirishi, ularning og'zaki hisoblash malakalarini o'stirish va rivojlantirish uchun matematik o'yinlarning ahamiyati kattadir. Shuningdek, matematik topishmoqlar o'quvchilarning dun-yoqarashini kengaytiradi, diqqati va xotirasini mustahkamlaydi, matematika faniga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi. Shuning uchun o'qituvchi ulardan dars jarayonida, sinfdan tashqari to'garak mashg'ulotlarida foydalanishi mumkin.

O'quvchilarning og'zaki hisoblash malakalarini oshirishda turli didaktik o'yinlardan foydalanish ham katta samara berishi tajribada ko'p bor sinalgan. O'quvchilar o'yin faoliyatida bir- birlari bilan munosabatga kirishadilar, hamda ma'lum predmetlar bo'yicha tushuncha hosil qiladilar. Didaktik o'yin dars mazmuniga muvofiq, o'quvchilarning aqliy taraqqiyotini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. "O'yin boshqa hamma usullardan ustunlik qiladi, chunki u xuddi bolalarning butun hayotini, shaxsiy faolligini, mustaqilligini yo'lga qo'yish imkonini beradi " - deb yozgan edi taniqli uslubshunos A. Usova. " O'yin – bu ijodiyot, o'yin – bu mehnatdir " – degan edi M. Gorkiy. Birinchi sinf matematika darslarida o'quvchilarning og'zaki va yozma hisoblash malakalarini oshirishda "O'rningni top", "Narvoncha", "Sonni top", "Zanjir", "Bog'bon bola", o'yinlari katta yordam beradi.

O'qituvchi dars va darsdan tashqari ishlar uchun o'yinlarni tanlab, ularni uslubiy tahlil qilib boradi.

Boshlang'ich sinf matematika darslarida yuqoridagi metodlardan foydalanilsa, o'quvchilar yengil va quvnoq kayfiyatda bo'ladilar, zo'riqish, charchash va zerikish kabi holatlar sodir bo'lmaydi. Ularda ham og'zaki hisoblash malakalari, ham aqliy va jismoniy faoliyat uyg'un davom etadi.

References:

1. Roziqov O. Didaktika. – Toshkent: 1997- yil.
2. 1-4-sinlar uchun matematikadan metodik qo'llanmalar. - T.: O'qituvchi, 1999.
3. www.ziyocom.uz
4. www.pedagog.uz